

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA BOLALAR RUHIYATI TASVIRI

Tog‘ayeva Mehriniso Abduvaliyevna

Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumanidagi

12-maktab boshlangich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek bolalar adabiyotining yirik nomoyondalaridan biri Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib“, “Sariq devning o‘limi“, “Jannati odamlar“, “Besh bolali yigitcha“, “Mungi ko‘zlar“ romanlarida muhitning , insonlarning bolalar ruhiyatiga qilgan ta‘siri tasviri to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xudoyberdi To‘xtaboyev, Dev, Sariq devning o‘limi, Jannati odamlar, Besh bolali yigitcha, Mungli ko‘zlar.

Abstract. In this article, one of the great representatives of Uzbek children's literature Khudoiberdi Tukhtaboyev's "Riding the Yellow Giant", "Death of the Yellow Giant", "People of Paradise", "Boy with Five Children", "Mungi In the novels "Eyes" the image of the influence of the environment, people on the psyche of children is considered.

Key words: Khudoiberdi Tokhtaboyev, The Giant, The Death of the Yellow Giant, The People of Heaven, The Boy with the Five Children, The Dark Eyes.

Аннотация. В данной статье один из великих представителей узбекской детской литературы Худойберди Тухтабоев «Верхом на желтом великане», «Гибель желтого великана», «Райские люди», «Мальчик с пятью детьми», «Мунги» В романах «Глаза» рассматривается образ влияния окружающей среды, людей на психику детей.

Ключевые слова: Худойберди Тохтабоев, «Великан», «Смерть желтого великана», «Люди небес», «Мальчик с пятью детьми», «Очи черные».

O‘zbek bolalar adabiyoti, xususan bolalarga atalgan nasriy adabiyot namunalari deganda, dastlab, ko‘z oldimizga Xudoyberdi To‘xtaboyev keladi. Hozirgi davr kitobxonlari borki Xudoyberdi To‘xtaboyevning hech bo‘lmasa biri asarini qiziqib mutolaa qilmagan bo‘lsa. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari

yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos tabiati, xususiyatlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarbop yo'sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Adib o'zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Uning "Sariq devni minib" romani dunyoning 20dan ortiq tillarga tarjima qilinishi va Janni Rodari tahsiniga sazovor bo'lishi buning yaqqol dalilidir. Roman tahliliga o'tishdan oldin, dastlab, asar nomiga to'xtalsak. Savol tug'iladi: Nega aynan Sariq dev? Oq emas yoki qora emas? Sariq olov rangi. Olov esa odatda nafsga qiyoslanadi. Nafsingir, nafsigra erk beruvchi kimsalarga nisbatan nafsi olov iborasi ishlatilishi bejiz emas, axir. Devning esa xalq og'zaki ijodidagi ramzi yomonlikdir. Unga yo'liqqan jonzot omon qolmog'i dargumon. Demak, biz mutolaa qilayotgan asar qahramoni Hoshimjon Ro'ziyev ham Sariq devni minib ya'ni nafsigra erk berib yo'lga otlandi. Xo'sh, nafs devni g'alaba qozonadimi yoki Hoshimjon? Asarning ikkinchi qismi hisoblanmish "Sariq devning o'limi"ni o'qisangiz ushbu savolingizga javob topasiz. Hoshimjon asar yakunida o'z nafsini yengadi va o'z kuchini yaxshi, foydali ishlarga sarflay boshlaydi. Ilmsizlik bilan, tajribasizlik bilan hech qayerga bora olmasligini anglab yetadi. Bu esa har bir bola uchun ibratlidir. Asarda 12 yoshlar chamasidagi bolaning biror mehnatsiz, o'qishsiz muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lganligi, ammo uning bilimsizligiga hattoki sehrlil qalpoqcha ham davo topa olmaydi. Asarda Sehrlil qalpoqcha obrazida ham katta ramz bor. Har bir bola olzining sehrlil qalpoqchasini topishi kerakligi ya'nikim, hayotda qilayotgan xatolarini anglab, aniq va katta maqsadlar qo'yib harakat qilishi kerakligi qalpoqcha obraziga singdirib yuborilgan. Hoshimjon Ro'ziyev ruhiyatidagi sho'xlik, kuch orqali esa bolalar sehrlil qalpoqchalarsiz ham harakat qilsa o'z maqsadlariga yetishishi mumkinligi tasvirlangan. Hoshimjon sehrlil qalpoqchani topish uchun qilgan harakatini o'qish-o'rganish uchun qilganda, balki hammasi boshidanoq boshqacha bo'lad edi. Asar tili o'ynoqi, ravon, bolalarga xos yumorga

boyliги bilan ajralib turadi. Bu asari bilan Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalarni shirin tanqid ostiga oladi.

Asarning ikkinchi qismi “Sariq devining o‘limi“ deb nomlangan. Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o‘yinqaroq Hoshimjon emas, balki to‘qqiz yillik maktabni bitirib, ulg‘ayib, birmuncha quyulib, esa kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o‘z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda etkazadigan odam bo‘lib etishi haqida jiddiy o‘ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshda sartarosh bo‘ladi. “Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga etkazmaguncha qo‘ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo‘lsa ham maqsadimga erishaman”, deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog‘laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o‘qib, uni bitirgandan so‘ng militsionerlikka ishga o‘tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi. Hamma gap-so‘zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog‘liq holda davom etadi. Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi. Ular o‘rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor, u Salimjon boshiga juda ko‘p og‘ir savdolar solgan, uyiga o‘t qo‘ygan, uning yakka-yu, yolg‘iz farzandining qo‘liga to‘pponcha tutqazgan, jinoyatga etaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar etkazish bilan shug‘ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag‘lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g‘olib chiqadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z romanida yulg‘ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo‘lib birlashsa, bu ishni butunlay o‘z qo‘liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Hamda bolalardagi yengilmaslik ruhi katta qahramonliklarga qodirligining badiiy tasvirini yaratadi.

5-6 yoshli bola tilidan hikoya qilingan asar bu “Jannati odamlar“ romanidir. Asarda bolaning bobosi va buvisi orqali bola tarbiyalashda o‘rnak bo‘la oladigan obrazlar yaratilsa, bolakeyning olzi orqali esa bolalik chog‘ingizga qanday qilib tushib qolganingizni anglamay qolasiz. Siz ham bolaga qo‘shilib sevinasiz, u yig‘lasa, yig‘laysiz. Shuningdek, ushbu asarda bolalar ruhiyatidagi kemptiklarni davolash biz kattalar qo‘lida ekanligiga bot-bot urg‘u berilgan. Bolaga bobosi va buvisi ota-onasidan ko‘ra ortiqroq mehr va tarbiya bera oldi, jannati odam bo‘lib yashashda ibrat bo‘la oldi. Bolaning ruhiyatiga ezgulikni, yaxshilikni singdirdi. Asarda bolalarga xos beg‘uborlik, soddalik, o‘yinqaroqlik o‘z aksini topganiligi bilan e‘tiborlidir. “Besh bolali yigitcha“ romanida esa mana shu o‘yinqaroqlikdan bebahra o‘sayotgan bola Orifjon tasvirlanadi. U o‘zi bola bo‘lishiga qaramay beshta ukasining tarbiyachisi, g‘amxo‘ri. Uning ruhiyati orqali yengilmas iroda, samimiyat tuyg‘ulari tasvirlanadi. Joyi kelganda bir bolaning ko‘nglini topish mushkul. Ammo u ukalarining ko‘nglini topishi, ularni parvarishlashi kerak. Naqadar ma‘suliyatli vazifa. Onasi vafot etar ekan: “Yaxshiyam esim yo‘g‘ida seni tug‘ib olgan ekanman“ deyishiyoq endi bor ma‘suliyat Orifjonda qolganligini anglatadi. Ushbu asar orqali yozuvchi bolalarni otasidan-onasidan ayirgan, xor-u zorlik, sargardonlikka mahkum etgan urush va urush orti harakatlarini qoralaydi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning yana bir asarida boylik, to‘kin-sochinlikda ulg‘ayayotgan oila farzandlarining tanazzuli tasvirlanadi. Bu o‘sha ma‘lum va mashhur “Mungli ko‘zlar“ romanidir. Inson hayotining ko‘p qismida bo‘lib o‘tgan voqealar uning ko‘zlarida zohir bo‘ladi deyishadi. Haqiqatdan ham shunday! Hayotdagi quvonch-u tashvishlarni ko‘rib, barchasiga emotsiya bildirish inson harakatlari va ayniqsa ko‘z qorachiqlari namoyon bo‘ladi. Yoshlikda inson ko‘zi deyarli quvonchdan porlaydi deymiz, aslida esa hayot bir tekisda ketmaganidek yoshlik quvonchlari ham silliq ketmaydi. Buning isbotini asardagi Akbar orqali ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri, bu badiiy asar deyishimiz mumkin, ammo asarlarda

ham hayotiy haqiqat borligi barchaga ayon. Ko'p ko'rganmiz, aksariyat boy oilalarning farzandlari hayotidan mamnun, xayollaridagi barcha istaklari ro'yobga chiqqanidan g'oyatdan sarmast bo'lib yurishadi. Ular uchun imkonsiz narsaning o'zi yo'qdek. Asarda yozuvchi aynan shunday bolalar holatini ochishga harakat qilgan. Shuningdek, yozuvchi asarga nom qo'yishda ham o'sha mungli bolalar nigohini kattalar nigohiga qadashni istaganidadir?

Badiiy asarlarda Inson tasvirlanar ekan ,albatta ruhiyat yetakchi planga chiqadi, chunki uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, chunki u doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Ijtimoiy muhitning bola ruhiyatiga ta'siri masalasi ushbu romanda yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi "Ruhi, dunyosi pok bo'lgan" bolalar qismatini jamiyat bilan konfliktda tasvirlaydi.

Asar qahramonlarini adib boshqa asarlariga nisbatan farqli tasvirlaydi. Sababi, u yaratgan bolalar obrazlarining ko'pchiligi go'lroq, ko'pincha yo ochlikdan qiynalgan, yo maktab direktori va o'qituvchilaridan dakki eshitib yuruvchi, sodda qishloq bolalari edi. (Sariq devni minib) Ammo ushbu asardagi bolalar hech qanday muhtojlik bilmagan, erka va arzanda bolalar, roman qahramonlari katta shaharda, dang'illama koshonada yashaydilar. Ular boy ota-onalarining erkalari. Bu uyda hamma narsa muhayyo, ota-onaning qo'li uzun, maktab direktoridan tortib, barcha tanish-bilishlarigacha ularga qulluq qiladi. Bolalar tabiatiga ham bu holat ta'sir etmay qolmagan. Bolalar ruhiyatida va xarakterida kibr bo'y ko'rsatib boradi. Boy oilaning arzanda farzandlarini adib voqealiklar orqali ichki dunyosini sinaydi! Bunday ijtimoiy muhitda ulg'aygan bolalar albatta ruhiy ziddiyatlar girdobida qolishi tabiiy. X.To'xtaboyev bu asarida bola ruhini parvarishlab , go'zal ishlov

berish ham uni tanazzulga boshlab borish ham ijtimoiy muhitdan ekanligiga ishora qiladi.

Asarda yozuvchi bir oilaning tanazullini ko'rsatib beradi. Zafarlar oilasi birdan ich ichidan yemirila boshlaydi: ota pora bilan qo'lga tushadi, noqulay savdo bilan shug'ullanuvchi tillafurush onaning jinoyatlari fosh bo'la boshlaydi. Ro'y bergan falokat erka farzandlarni hang-mang qilib qo'yadi. Akbar xonasiga kirib indamas bo'lib qoladi. Zafar dam xolasi, dam pochchasihali u mahkamaga, hali bu idoraga murojaat qiladi. Zufar o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. Nigora e'tiborsiz qolib ketadi. Fojea chuqurlashadi: ona qamoqxonada vafot etadi. Bolalar go'yo osmondan yerga qulaydilar...qon qaqshab yetim qoladilar. Boy oilaning boshiga tushgan bu savdo o'nglab bo'lmas zarba bo'ladi

Poraxo'rlik har doim jamiyat rivoji uchun, odamlarning to'kin turmushi uchun xavf soladigan dahshatli kuchdir. U jamiyatning qon-qoniga singib ketgan bo'lsa, bu davlatni tanazzulga yetaklaydi. Kichik do'konchidan, huquqni himoya qiladigan tashkilot boshlig'igacha poraxo'rlik botqog'iga botgan jamiyatda yovuzlikni kuni tug'adi, inson o'z nafsini quliga aylanadi, halollik anqoning urug'iga aylanadi. Asarni o'qish jarayonida har xil vindonli, vijdotsiz qahramonlarga duch kelib, o'quvchi o'ziga kerakli xulosani oladi.

Yozuvchining asl maqsadi - yomon illatlar: boylikka hirs qo'yish, tamagirlik, odamlar haqqini yeyish, insonga hech qachon mutloq baxt bermasligi, aksincha inson boshga bitmas-tuganmas azob-uqubat olib kelishini tasvirlash bo'lgan bo'lsa ne ajab. Ota-onaning azobda ekanligi, hech bir farzand uchun yoqimli holat emas. Bu holat ularning qalbini armon-alamga, ko'zlarini mungga to'ldiradi. Mung va fojealar esa insonni ruhiyatiga o'z ta'sirini va izini sezdirmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Bolalar adabiyoti” (O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan.
2. O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati
3. Jumaboyev M. O'zbek bolalari adabiyoti, - T.: O'qituvchi 2002y.
4. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., 2008y
5. Matchonov S. (2020). Kitobxonlik va mutolaa madaniyati. BuxDU
Boshlangich sinflaring she tili ta'limida innovation technology lardan yuklash.
Xalqaro anjuman materiallari 2020 -yil 29-aprel, 89-92-betlar
6. Rasulov R. (2020). Word Valence and Syntactic Relationship. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 295-300.
7. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari